



IJTIMOY MUHIT BOLANI TARBIYALASHDA MUHIM OMIL SIFATIDA ЭРИШИШДАГИ АҲАМИЯТИ

Aripov Zoirjon Toirjonovich
To'lqinjonova Mehrigon Sherzodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18712398>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-fevral 2026 yil

Ma'qullandi: 18-fevral 2026 yil

Nashr qilindi: 20-fevral 2026 yil

KEY WORDS

Bola, ijtimoiy muhit, tarbiya, shaxs kamoloti, pedagogik, ijtimoiylashuv, ma'naviy rivojlanish.

ABSTRACT

Bugungi globallashuv sharoitida bolalar tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar ko'lami kengayib, ularning ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqasi tobora kuchayib bormoqda. Oila ta'lim muassasalari, tengdoshlar jamoasi, ommaviy axborot vositalari va raqamli makon bolani shakillantiruvchi asosiy ijtimoiy muhit komponentlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi globallashuv sharoitida bolalar tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar ko'lami kengayib, ularning ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqasi tobora kuchayib bormoqda. Oila ta'lim muassasalari, tengdoshlar jamoasi, ommaviy axborot vositalari va raqamli makon bolani shakillantiruvchi asosiy ijtimoiy muhit komponentlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ijtimoiy muhitning ayrim salbiy jihatlari bolalarda xulq-atvor buzulishi muammolari, ma'naviy bo'shliq, moslashuv qiyinchiliklarini keltirib chiqarmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun ijtimoiy muhitning tarbiyaviy imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Shu bilan birga, bolani tarbiyalashda ijtimoiy muhitning tizimli ta'siri uning pedagogik mexanizmlari va samarali foydalanish yo'llari yetarli darajada kompleks o'rganilib kelinmoqda.

Asosiy qism

Bolalar atrof-muhitdan o'rganib yashaydi. Ular ko'rganini takrorlaydi, eshitganini yodlab oladi va his qilganiga qarab munosabat bildiradi. Ijtimoiy muhit — bu inson yashaydigan, rivojlanadigan va faoliyat yuritadigan sharoitlar majmuasidir. Shuning uchun psixologiya nuqtai nazaridan ijtimoiy muhit — bolaning shaxs bo'lib shakllanishidagi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Ya'ni, bola kimlar bilan yashasa, qanday gaplarni eshitsa, qanday muhitda bo'lsa — shunga o'xshab boradi. Bolaning ruhiy (psixologik) rivojlanishi tug'ma xususiyatlar va ijtimoiy muhit ta'sirining o'zaro uyg'unligi natijasida shakllanadi. Psixologiyada bu jarayonni tushuntirishda Urie Bronfenbrenner ishlab chiqqan ekologik tizimlar nazariyasi muhim ahamiyatga ega. Uning ekologik tizimlar nazariyasiga ko'ra u bolaning rivojini bir nechta muhit tizimlari bilan bog'laydi:

Mikro tizim – oila, bog'cha, maktab

Mezo tizim – bu muhitlar o'rtasidagi bog'lanish Makro tizim – jamiyat madaniyati, an'analari

Bu tizimlarning har biri bolaning shaxsiy rivojiga o'z hissasini qo'shadi va bola bir vaqtning o'zida bir nechta muhitlar ta'sirida rivojlanadi. Ijtimoiy muhit bolaning ruhiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Agar muhit qo'llab-quvvatlovchi va sog'lom bo'lsa, bola barkamol shaxs sifatida shakllanadi. Aks holda, ruhiy muammolar, moslashuv qiyinchiliklari va xulqiy buzilishlar paydo bo'lishi mumkin.

Pedagogika va ijtimoiy pedagogika fanlarida ijtimoiy muhit shaxs rivojlanishining muhim sharti sifatida qaraladi. Ko'plab tadqiqotchilar bolanning shaxs sifatida shakllanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Bunga misol qilib birqancha olimlarning fikrini ham aytishimiz mumki. Lev Vygotskiy bolaning rivojlanishi ijtimoiy munosabatlardan ajratib bo'lmasligini ta'kidlaydi va uning fikriga ko'ra "Bola shaxsining shakllanishi avvalo ijtimoiy muhitda, katta va tengdoshlar bilan muloqot jarayonida sodir bo'ladi." Anton Makarenko esa jamoaning tarbiyadagi ro'li alohida o'ringa ega ekanligini o'zining "Tarbiyaning asosiy quroli – bu jamoa." degan fikrlarida aytib o'tgan. Bundan ko'rinib turibdiki ijtimoiy muhit-bolada ijtimoiy xulq-atvorni shakllanishidagi asosiy ta'sir etuvchi omil hisoblanadi.

Ilmiy manbalarda ijtimoiy muhit – bu shaxsni o'rab turgan ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar, an'analar va axloqiy me'yorlar majmui sifatida izohlanadi. Oila muhiti bolada dastlabki axloqiy tasavvurlarni shakllantirsa, maktab esa bilim va ijtimoiy tarbia manbai bo'lib xizmat qiladi.

Tengdoshlari bilan muloqot jarayonida bola hamkorlik, murosa va ma'suliyat kabi sifatlarni egallaydi. Shu sababli tarbiyaviy jarayonni faqat maktab yoki oila bilan cheklash to'g'ri emas, balki ijtimoiy muhitning barcha komponentlarini uyg'unlashtirish zarur.

Bolaga ijobiy muhit (ya'ni mehr, xavfsizlik, qo'llab-quvvatlash va rivojlanishga yo'naltirilgan muhit) juda katta ta'sir ko'rsatadi. Psixologiya nuqtai nazaridan bunday muhit bolaning shaxs sifatida shakllanishi, o'ziga bo'lgan ishonchi va hayotga munosabatini belgilaydi. Ijtimoiy ko'nikmalar shakllanishiga ta'siri; ijobiy muhit bolani boshqalar bilan to'g'ri muloqot qilishga o'rgatad, do'stlashish osonlashadi, hamkorlik va yordam berish odati paydo bo'ladi, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmasi shakllanadi, ijobiy muhit bolaning o'zini qadrligini shaxs deb his qilishiga yordam beradi, "Men buni qila olaman" degan ishonch paydo bo'ladi, mustaqil qaror qabul qilishga jur'at topadi.

Bu fikrlar psixolog Abraham Maslowning ehtiyojlar nazariyasiga ham mos keladi: avval xavfsizlik va mehr, so'ng rivojlanish.

Bolaga salbiy muhit (ya'ni doimiy tanqid, zo'rlik, e'tiborsizlik yoki stressli ijtimoiy sharoit) psixologik va ijtimoiy jihatdan jiddiy zarar yetkazadi. Bunday muhit bolaning ruhiy, emotsional va intellektual rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi.

Salbiy muhitda bola o'zini xavfsiz his qilmaydi. Bu uning ruhiy holatiga zarar yetkazadi: Doimiy qo'rquv va stress paydo bo'ladi, o'zini past baholash, ishonchsizlik rivojlanadi, depressiya va xavotirga moyillik oshadi. Masalan, doimiy tanqid va qattiq jazolar bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotishiga olib keladi. Bu esa do'stlar orttirish qiyinlashadi, nizo va ziddiyatlarni hal qilish qiyin bo'ladi, yolg'izlik va ijtimoiy qochish kuzatiladi, psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, doimiy zo'rlik yoki tahqirlash ijtimoiy o'zaro aloqalarni susaytiradi. Salbiy muhit bolada o'zini qadrsiz his qilishga olib keladi: "Men buni qila olmayman" degan fikr paydo bo'ladi. Mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati pasayadi. Ota-ona va tarbiyachilar bilan munosabatlar yomonlashadi. Psixolog John Bowlbyning tadqiqotlariga

ko'ra, mehr va e'tiborsizlikning yetishmasligi bolaning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga katta zarar keltiradi.

Bolalarning ijtimoiy muhit tasirida ulg'ayishi yuqorida aytkanimizdek xulq- atvoriga tasir ko'rsatadi. Bu ta'sirlar ijobiy va ba'zan salbiy natijalarni beradi. Bunda pedagoglar doimo kuzatuvchi va tadqiq etuvchi vazifasida bo'lishi zarur. Negaki bolada salbiy tomonga o'zraish aniqlansa ya'ni boladagi ruhiy tushkunlik, noto'g'ri hatti-xarakatlarning kuchayishi, ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar kuztilsa ular tadqiqotlar asosida aynan qaysi muhit bola xulqiga tasir etayotganini aniqlashi va uni bartaraf etishlari kerak bo'ladi. Buning sababi bolalardagi salbiy o'zgarishlar e'tiborsiz qoldirilsa, bolaning ruhan va manaviy jihatdan orqada qolishi, jamiyatga va muhitga moslasha olmasligi holatlari kuzatilishi mumkin bo'ladi. Manashunday holatlarda asosan pedagoglar kuzatish, suhbat, taqqoslash, umumlashtirish kabi tadqiqot metodlaridan foydalangan holatda vaziyatni o'rganadi va ularga yechim topadi. Bundan tashqari bolalarda muhitning ta'siri va bolalardagi o'zgarishlarni tadqiq qilish orqali pedagoglar o'zlari uchun yangi va kerakli xulosalarni olishadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ijobiy ijtimoiy muhitda tarbiyalangan bolalarda mas'uliyat, mustaqillik, o'ziga ishonch va ijtimoiy faollik yuqori bo'ladi. Aksincha, nosog'lom muhit bolalarda tajovuzkorlik, befarqlik va o'qishga qiziqishning pasayishiga olib keladi.

Shuningdek, oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik ijtimoiy muhitning samaradorligini oshiruvchi asosiy omil ekanligi aniqlandi

Xulosa

Ijtimoiy muhit bolani tarbiyalashning eng muhim omillaridan biri bo'lib, bolaning tarbiyasi va psixologik rivojida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Oila, ta'lim muassasalari, tengdoshlar va jamiyat birgalikda bolaning shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Ijobiy va sog'lom ijtimoiy muhit yaratish orqali barkamol, mustaqil fikrlovchi va ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalash mumkin. Ijtimoiy muhit shaxs kamolotining barcha bosqichlariga ta'sir ko'rsatadi. Bolaning barkamol shaxs bo'lib yetishishi uchun ijobiy, qo'llab-quvvatlovchi va ma'naviy boy muhit yaratish zarur.

Mening fikrimcha, har bir pedagog va ota-ona bolaning ijtimoiy muhitini ongli ravishda boshqarishi, salbiy ta'sirlardan himoya qilishi va ijobiy imkoniyatlardan samarali foydalanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Bo'tayev,L.(2019). Bolalar nutqini rivojlantirish texnologiyalari. Toshkent:Fan va texnologiyalar nashriyoti.
- 2.Piaget,G.(1977).Bolalar aqliy rivojlanishi. Parij:Dunyo psixologiyasi.Axunov,J.(2018).Bolalar psixologiyasida innovatsion yondashuvlar. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.
- 3.Toirjonovich, A. Z. (2022). XALQ O'YINLARINING ETNOPEdagogik TASNIFI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(Special Issue 2), 77-81.
- 4.Арипов, З., & Сайдумарова, М. (2021). Zamonaviy o'qitish metodlari orqali iqtidorli o'quvchilarni tarbiylash va rivojlantirish. Общество и инновации, 2(12/S), 86-92.
- 5.Toirjonovich, A. Z. (2023). Creative Self-Development of the Personality of the Future Teacher. Central Asian Journal Of Social Sciences And History, 4(2), 49- 56.
- 6.Zoirjon, A., & Ominaxon, O. (2022). Nutq Buzilishi Turlari Va Ularning Xususiyatalri. Research Focus, 1(4), 216-221.

7. Aripov, Z. (2023). Modern Requirements for the Professional Development Of A Teacher. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(7), 175-178.
8. Zoirjon, A. (2023). Important aspects of ensuring the effectiveness of training in primary education. Asian Journal Of Multidimensional Research, 12(6), 67-73.
9. Aripov, Z., & Oripova, O. (2023). ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALAR E'TIBOR MARKAZIDA. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 135-138.
10. Aripov, Z. (2023). UZLUKSIZ TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI. PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE, 1(7), 120-124.

